

BUXORO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2024- YIL YANVAR-MART



Buxoro viloyatida 2024- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - 10 583,6 mlrd. so'm

O'sish sur'ati - 2,3 m.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **10 583,6** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan **2,3 m.** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **8 666,1** mlrd. so'm yoki **81,9 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **1 556,7** mlrd. so'm, yoki **14,7 %** i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **457,4** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **4,3 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **10 126,2** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **95,7 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	10 583,6	1,1	8,3	6,4	2,3	81,9	-	-
Buxoro sh.	1 158,5	0,6	22,0	10,9	6,3	60,2	-	-
Kogon sh.	86,5	0,6	19,8	18,3	0,1	61,2	-	-
Olot	344,3	9,0	8,8	13,1	3,4	65,7	-	-
Buxoro	654,1	0,7	5,7	9,6	0,9	83,1	-	-
Vobkent	251,2	0,1	11,8	15,7	2,9	69,5	-	-
G'ijduvon	1514,7	0,8	1,9	4,9	4,0	88,4	-	-
Kogon	247,2	1,6	10,6	19,7	12,6	55,5	-	-
Qorako'l	2 701,5	-	8,4	1,5	0,0	90,1	-	-
Qorovulbozor	1 695,8	-	5,9	0,7	0,1	93,3	-	-
Peshko'	1 178,8	0,1	0,9	5,3	0,5	93,2	-	-
Romitan	441,1	12,4	14,4	14,1	4,6	54,5	-	-
Jondor	189,4	0,1	15,8	24,3	9,1	50,7	-	-
Shofirkon	120,5	-	20,2	36,5	6,6	36,7	-	-

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Mrld. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Jami	10 583,6	2,3 m.	100
<i>Markazlashgan:</i>	457,5	85,1	4,3
Respublika byudjeti	115,9	48,3	1,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	2,0	15,0	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	339,6	119,4	3,2
<i>Markazlashmagan:</i>	10 126,1	2,5 m.	95,7
Korxonalar mablag'i	878,1	95,9	8,3
Aholi mablag'i	678,6	112,8	6,4
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	8 326,5	3,6 m.	78,7
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari	242,9	104,6	2,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da


Markazlashgan



Markazlashmagan




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **3 395,9** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **32,1** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **6 303,2** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **59,5** % i) va boshqa xarajatlarga **884,5** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **8,4** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, elektr energiyasi va gaz ta'minoti yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **3 974,2** mlrd. so'm o'zlashtirilgan, yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **37,6** % ni tashkil etmoqda.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga **29,2** % (yoki **3 093,3** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **10,1** % (yoki **1 068,2** mlrd. so'm), tashish va saqlash faoliyati **4,5** (yoki **473,2** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **4,4** % (yoki **466,8** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **4,3** % (yoki **451,7** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **1,8** % (yoki **186,3** mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **1,3** % (yoki **137,8** mlrd. so'm), suv bilan ta'minlash,

kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **1,2 %** (yoki **128,3** mlrd. so'm), qurilishga **1,2 %** (yoki **125,5** mlrd. so'm), ta'limga **0,6 %** (yoki **66,6** mlrd. so'm), boshqa faoliyat turlariga **3,8 %** (yoki **411,7** mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2024- yil yanvar-mart oylarida **8 666,1** mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **81,9 %** i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **3,3 m.** ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **5 393,9** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **62,2 %** ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **3 272,1** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **37,8 %** ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **3 912,2** (yoki **45,1** %), ishlab chiqarish sanoatiga **2 900,7** mlrd. so'm (yoki **33,5** %), tog'-kon sanoatiga **891,8** mlrd. so'm (yoki **10,3** %), tashish va saqlashga **345,5** mlrd. so'm (yoki **4,0** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **124,9** mlrd. so'm (yoki **1,4** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **85,3** mlrd. so'm (yoki **1,0** %), qurilishga **34,5** mlrd. so'm (yoki **0,4** %) va boshqa faoliyat turlariga **371,2** mlrd. so'm (yoki **4,3** %) to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'mda)

	Jami investitsiya va kreditlar	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	8 666,1	4 810,8	339,6	3 515,7
Buxoro sh	696,9	314,3	246,9	135,7
Kogon sh	52,9	2,3	34,5	16,1
Olot	226,3	5,9	42,0	178,4
Buxoro	543,4	125,6	-	417,8
Vobkent	174,6	-	-	174,6
G'ijduvon	1 339,4	1295,6	-	43,8
Kogon	137,2	41,3	16,2	79,7
Qorako'l	2 434,4	423,7	-	2 010,7
Qorovulbozor	1 581,4	1250,8	-	330,6
Peshko'	1 098,9	1098,2	-	0,7
Romitan	240,4	202,7	-	37,7
Jondor	96,1	6,2	-	89,9
Shofirkon	44,2	44,2	-	-

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Qorako'l tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **2 701,5** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **4,6 m.** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Qorovulbozor tumani egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **1 695,8** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **9,5 m.** ni tashkil qildi. G'ijduvon tumani **1 514,7** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan **4,7** martaga ko'paydi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming soʻmda	Oʻsish surʼati, % da
Jami	5 169,5	2,3 m.
Buxoro sh	3 923,0	135,5
Kogon sh	1 334,3	122,2
Olot	3 294,8	157,0
Buxoro	3 658,5	2,4 m.
Vobkent	1 687,1	2,4 m.
Gʻijduvon	4 689,3	4,6 m.
Kogon	2 915,2	40,3
Qorakoʻl	15 697,2	4,6 m.
Qorovulbozor	85 217,0	9,4 m.
Peshkoʻ	8 978,0	5,8 m.
Romitan	2 911,7	44,9
Jondor	1 019,4	143,1
Shofirkon	645,7	98,9

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori koʻrsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **85 217,0** ming soʻmni, oʻsish surʼati **9,4 m.** ni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Qorakoʻl tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **15 697,2** ming soʻmni, oʻsish surʼati **4,6 m.** ni tashkil qildi. Gʻijduvon tumani uchinchi oʻrinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **4 689,3** ming soʻmni, oʻsish surʼati **4,6 m.** ni tashkil qildi.

Obyektlarni ishga tushirish

2024- yilning yanvar – mart oylarida umumiy maydoni **282,8** ming kv.m. bo'lgan **1 031** xonadonli **855** ta turar-joy ishga tushirildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,9** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **191,4** ming kv.m bo'lgan **566** ta xonadonli **566** ta turar joylar qishloq joylariga to'g'ri keladi. (O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,1** %) Turar-joylarni qurilishiga **393,4** mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99